Akseleratsiyaning inson jismoniy va psixologik rivojlanishiga ta’siri: biologik yetilish va ijtimoiy voyaga yetish o‘rtasidagi nomutanosiblik

Madaminjanova Muslimaxon

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika fakulteti psixologiya yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asrda, bolalarning akseleratsion rivojlanishini keskin ortib borayotgani va buning ko’plab ijobiy tomonlarini taxlil qilgan. Akseleratsiya tushunchasi va uning omillari insonlarda qanday yuzaga kelishini, dastaval bu tushuncha qachondan kelib chiqqani, ilmiy va tarixiy ma’lumotlarga ko’ra bayon qilingan. Shuningdek, akselaratsion jarayonga genetik va gormonal omillarning turlicha ta’siri solishtirilgan.

Kalit so’zlar: Akseleratsia, gormonal proporsiya, pubertad, gigiyena, somatik axeleratsia, biologik yetuklik, psixologik yetuklik**.**

Kirish

Akseleratsiya insonning jismoniy o‘sishi, biologik yetilishi va ayrim rivojlanish jarayonlarining avvalgi avlodlarga nisbatan tezlashishi bilan bog‘liq murakkab hodisa**.** Axeleratsiya (lotincha *acceleratio* “tezlashish”) keyingi avlodlarda bolalar va o‘smirlarning o‘sishi, jismoniy rivojlanishi va biologik yetilishining oldingi avlodlarga nisbatan tezroq yoki ertaroq sodir bo‘lish tendensiyasi**.** Soddaroq aytganda, bolaning yosh jihatidan uning jismoniy holatining rivojlanib ketishi. Ya’ni 13, 14 yoshli bola akseleratsiyaga uchraydi va uning bo’yida, gavdasida, ovozi hatto jinsiy azolarida ham keskin o’sish kuzatilib, tashqi ko’rinishdan huddi kattalardek ko’rinadi. Ammo bu holat bolaning faqat jismoniy holatiga ta’sir qilib, psixikasi va fikrlash doirasida o’zgarish ko’rsatmaydi. Kattalardek ko’rinsada, haliham o’z yoshi atrofida fikrlashda davom etadi. Shuni ta’kidlab o’tish joizki, akseleratsiya kasallik emas va uni yomon alomat ham deb bo’lmaydi. Akseleratsiya ko’p holatlarda bolaning sog’lom rivojlanayotganini va gormonlari stabil ishlayotganidan darak beradi. Ilmiy tadqiqotlarga ko’ra, juda kam holatlarda bola kuchli stressga tushganida yoki garmonlarning ishlab chiqarilishi izdan chiqqanida nosog’lom akseloratsiyaga olib keladi. Misol uchun : gipofiz bezining ishdan chiqishi. Bu bez qon tomirlari orqali bosh miya

gipotalamusi bilan bog’langan. Gipofiz bezlari ko’pchilik endokrin bezlariga ta’sir ko’rsatadi. Bezning somototrop gormoni bo’y o’sishiga ta’sir qiladi. Yosh bolalarda bu gormon ko’p ishlab chiqarila boshlansa, ’’Gigantizm’’ kasalligiga olib keladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko‘plab Yevropa mamlakatlarida odamlarning o‘rtacha bo‘yi oshgani ilmiy ravishda qayd etilgan. Ayrim Yevropa populyatsiyalarida tarixiy davr davomida kattalar bo‘yining o‘sishi taxminan 10–30 mm/10 yil atrofida bo‘lgan. Hatto tabiatdan bo’yi past bo’lgan Xitoy halqi sun’iy akseleratsiya qilish protsedurasi orqali yangi avlodlarinining bo’yini o’stirishga muvofaq bo’lishdi. Ularning olgan natijalari omma oldida turli savollarga va akseleratsiyaning tabiy shaklini o’rganishga sabab bo’ldi.

Akseleratsiyaning asosiy belgilari:

Axeleratsiyani bir nechta yo‘nalishda ko‘rish mumki.

Masalan**:** Somatik axeleratsiya

Bu tananing jismoniy rivojlanishi bilan bog‘liq jarayon. Bo‘y tezroq o‘sishi, tana massasining o‘zgarishi, skeletning rivojlanishi, tana proporsiyalarining o‘zgarishi.

2. Jinsiy axeleratsiya

Bu pubertatning ertaroq boshlanishi bilan bog‘liq. Qizlarda: ko‘krak bezlarining rivojlanishi, hayz ko‘rishning ertaroq boshlanishi. O‘g‘il bolalarda: jinsiy yetilish belgilarining paydo bo‘lishi, gormonal o‘zgarishlar, reproduktiv tizimning yetilishi.

3. Biologik yetilishning tezlashishi

Bola biologik jihatdan tengdoshlaridan yoki oldingi avlodlarga qaraganda tezroq yetilishi mumkin.Lekin bu psixologik yetuklik ham avtomatik ravishda tezlashadi, degani emas.

Bolalrning axeleratsiyaga uchrashining aynan bitta sababi yo‘q**.** Hozirgi ilmiy qarashga ko‘ra, bu hodisa genetik, biologik, ekologik, ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasidir. Shuningdek ovqatlanish ratsioni bu borada keraklicha ro’l ijro etadi. Bu holat akseleratsianing ekologik omillaridan biri hisoblanadi. Bolalikdagi yetarli energiya va oqsil, vitamin-minerallar bilan ta’minlangan ovqatlanish o‘sish imkoniyatlarini yaxshilaydi. Sog’lom ovqatlanish tartibi o’sayotgan bolada kerakli vitaminlar va gormonlarning

oshishiga sabab bo’ladi natijada, bolaning o’sish protsesi sezilarli darajada ortada. Shuning uchun tarixan iqtisodiy va sanitariya sharoitlari yaxshilangan jamiyatlarda bolalarning o‘rtacha bo‘yi ham oshgan.

Shuningdek akseleratsiyaning hammasiga zamonaviy hayot va stabil yashash muhiti sabab deyish noto‘g‘ri. Bu o’rinda genetika ham juda katta ro’l o‘ynaydi. Pubertat vaqtining individual farqlarining taxminan 50–80% gacha qismi genetik omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, deb baholangan.

Quyida omma uchun qiziq bo’lgan yana bir muhum savol bor: Bugungi bola kechagi boladan balandroq bo‘lishi mumkin, ammo bu uning kechagi boladan psixologik jihatdan ham yetukroq ekanini anglatadimi? Ya’ni bu tushuncha orqali biz akseleratsiya bolaning faqat jismniy holatiga ta’sir etadimi?, Uning psixikasi va fikrlash doirasigachi? -degan ma’noni tushunamiz.

Javob: Akseleratsiya bolaning jismoniy tana shakliga ta’sirini ko’rsatadi va uni yoshiga nisbatan kattaroq, ulg’ayganroq qilib ko’rsatadi. Ammo bu, jaroyon bolaning psixik holatini ham o’z ichiga olishini anglatmaydi. Yuqorida aytib o’tilganidek, bu faqat bir taraflama jarayondir.

Olimlarning aniqlashicha bola aqliy jihatdan ham akseleratsiyaga uchrashi mumkin ammo ilmiy terminlar bilan bu huddi shunday nom olmagan. Bolaning yoshiga nisbatan aqliy rivojlanishi quyidagicha bo’ladi: Asosan bu holat yaxshi oilaviy muhit va to’g’ri tarbiyadan kelib chiqadi. Shuningdek bu yerda ham genetika kuchli ro’l oynaydi. Bolaning yashayotgan muhiti qolgan bolalarnikidan ajralib turadigan bo’lsa, (asosan kattalar orasida o’sib, o’z tengdoshlaridan ajralganligi), yoshligidan mexnat va ilmga yo’naltirilsa, hamda berilayotgan tarbiyaning sifatliligi - bolani yoshiga nisbatan teranroq fikr yuritishiga olib keladi. Shunda bola o’z tengdoshlari orasdani ajralib turganiga guvoh bo’lishimiz mumkin. Chunki uning fikrlashi o’z-o’zidan uning hatti harakatlari, o’zining omma oldida tutishi va gaplarida yaqqol ko’rinib turadi.

Xulosa:

Axeleratsiyaning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, jismoniy va biologik yetilishning tezlashishi psixologik hamda ijtimoiy yetuklikning aynan shu sur’atda

rivojlanishini anglatmaydi**.** O‘smir organizmi fiziologik jihatdan kattalarga xos xususiyatlarni nisbatan erta egallashi mumkin, biroq uning emotsiyalarni boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish, mas’uliyatni anglash, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish va uzoq muddatli oqibatlarni baholash kabi psixologik jarayonlari hali ham shakllanish bosqichida bo‘ladi. Natijada biologik yetilish bilan ijtimoiy voyaga yetish o‘rtasida muayyan nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkin. Umuman olganda, axeleratsiyani faqat ijobiy yoki salbiy hodisa sifatida baholash to‘g‘ri emas. U inson organizmining yashash sharoitlari va biologik imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tabiiy rivojlanish tendensiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cole, T. J. (2000). Secular trends in growth. Proceedings of the Nutrition Society,
2. Hauspie, R. C., Vercauteren, M., & Susanne, C. (1997)
3. Bellis, M. A., Downing, J., Yates, J., et al. (2013)
4. Odam va uning salomatligi (8-sinf darsligi)